



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 322 sahifa,
3-oktyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Use of Innovative Pedagogical Technologies in the Development of Critical Thinking	16
<i>Gulnar Atakhanova Orinbaevna</i>	
Current Aspects of Designing and Implementing Extracurricular Educational Activities at the Primary General Education Level.....	20
<i>Amankosova Dinara Gabitovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahorati shakllanishining nazariy asoslari....	24
<i>Axmadaliyeva Moxlaroy To'xtapolatovna</i>	
Pedagogical Model and Stages of Teaching Subjects Through a Project-Based Approach	28
<i>Bannayev Qosimjon</i>	
Lotin tili va zamonaviy tibbiy terminologiya: tarixi, vazifasi va amaliy ahamiyati	31
<i>Eshmurodova Shirin Oybekovna</i>	
Motor alaliyaning nonutqiy simptomatikasi	34
<i>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</i>	
Talabalar etnomadaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari	38
<i>Isomiddinov Asliddin Baxriddin o'g'li</i>	
Texnologiya darslarida o'quvchilarning texnik savodxonligini robototexnika elementlari asosida rivojlantirish.....	41
<i>Jabborova Umida</i>	
Fizika fanini mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida o'qitishda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	45
<i>Xayrullayev Asliddin Isatullayevich</i>	
Talaba tomonidan mutaxassislik tilini o'zlashtirishda monologik nutqni o'rgatishning samarali usullari masalasi haqida.....	51
<i>Karimov N. M.</i>	
Zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlashda kasbiy motiv va motivatsiyaning o'rni	54
<i>Melikova Einora Shuxratovna</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda pragmatik kompetensiyaning roli.....	58
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
O'quvchilarda iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari	62
<i>Nishonova Dilafuz</i>	
Computer-Based Formative Assessment: Advantages and Challenges in Teaching English to High School Students	66
<i>Obidjonova Shokhista Bakhtiyorovna</i>	
Metata'lim texnologiyalari asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish.....	70
<i>O'rolboyeva Durdona Sayfiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt asosidagi darslarning an'anaviy darslarga nisbatan samaradorligini qiyosiy tahlil qilish.....	73
<i>Rasulev Bobirjan Atxamovich</i>	
Pedagogik faoliyatda pedagogning kasbiy taraqqiyoti motivatsiyasining psixologik xususiyatlari	78
<i>Rustamova Surayyo Shaxobiddinovna</i>	
Innovatsion kompetentlik tushunchasi va uning ilmiy-pedagogik asoslari.....	84
<i>Soliyev Eliyor Ravshan o'g'li</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituv idrokini o'yinlar yordamida rivojlantirishning samarali usullari	88
<i>Xalilova Shahnoza</i>	
Zamonaviy ta'limda kommunikativ kompetensiyaning o'rni va ahamiyati.....	92
<i>Yaqubova Nigoraxon Ibrohimjon qizi</i>	
Soliq yuki – mamlakat soliq soliq tizimining asosiy mezonidir	97
<i>Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va takomillashtirish yo'llari	101
<i>Ibodova Sarvinoz Sayfilloyevna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida hospital pedagogika fanini o'qitishning dolzarb masalalari va uning uslubiy ta'minoti	106
<i>Inogamova Dilfuza Rahmatullaevna</i>	



Chizma geometriya va kompyuter grafikasi: an'anaviy fan va zamonaviy texnologiyaning uyg'unlashuvi .	111
Raximov A. M., Tairova N. S., Sabirova D. U., Xasanova S. T., Tashpulatov R. X.	
Геймификация в обучении английскому языку на начальном этапе обучения	114
Курбанова Назира Низомиддиновна	
Talabalarda tanqidiy va evristik fikrlashni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni	117
Adjiev Nayrullo Nazrulloevich	
Konstruktiv yondashuv asosida tabiiy fanlar (science)ni o'qitish metodikasi.....	122
Amirullayeva Barno Abdulhaqovna	
Kimyo o'qitishda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning tajriba-sinov natijalari.....	126
Artiqov Maqsud Bahodirovich, Babanazarova Ayzada Omirbaevna	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni bilingvist sifatida shakllantirishda til o'rganish ko'nikmalari va kompetentsiyalarining rivojlanishi	131
Axmadjonova Gulira'no Muxtorjon qizi	
Talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda kooperativ ta'limning metodik yondashuvlari	135
Botiraliyeva Gulobar Mahamadismoil qizi	
Talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sherikchilikning pedagogik va metodik asoslari	139
Dilbarjonov Avazbek Ravshanbek o'g'li	
Teacher-Centered and Child-Centered Methods in Early Childhood Education: Insights From Finland and Uzbekistan	143
Djaparova Gulnoza	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati"ni tashkil etish	150
Do'stov Davron Zulhaydarovich	
Theoretical, Methodological, and Practical Factors of Differentiated Education	155
Ergash Shonazarovich Khasanov	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishda kognitiv yondoshuv	160
Gulbahor Xamidova	
Mustaqil ta'lim – mustahkam bilim.....	164
Halima Shukurova Sunatullayevna	
Integrating Google Classroom and Project-Based Learning for Enhanced Synchronous and Asynchronous Education.....	168
Inomkhojaeva Shodiyakhon Abdukodirkhoja qizi	
O'quvchilarning innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	174
Mamadaliyev Axadjon G'aniboyevich	
Hududiy rivojlanishda innovatsion yondashuvlarni strategik boshqaruvga integratsiya qilish yo'llari.....	177
Mo'minov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
O'rta yoshdagi ayollarda harakat faoliyatini rivojlantirishda milliy o'yinlarning pedagogik ahamiyati	184
Mustafoev Sherali	
Pedagogical and Psychological Foundations of Developing Higher-Order Thinking Skills in Students.....	188
Nasimova Zarina Isomiddin kizi	
Pedagogik ijodkorlikning kasbiy professionallikda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	193
Numonova Dildor Umurzoqovna	
Ko'zi oqiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	196
Qarshiboyev Asliddin	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish masalalari.....	200
Qilichova Marxabo Xudayqulovna	
The Transformation of Existential Thought in British Literature: Iris Murdoch's Philosophical Humanism and the Reinterpretation of Freedom	204
Rahmonqulova Zarnigor Nasimjon qizi	
Sportchilarning elektron platformalardan foydalanishning metodik tahlili	209
Saydullayev Zafar Erkinovich	
Adabiy ta'limda estetik tarbiya	216
Sharipov Elmurod Sa'dulla o'g'li	
O'qituvchi-trenerning ko'p qirrali kasbiy-pedagogik funksiyalari	220
Sulaymonov Jaxongir Solijonovich	
Uzluksiz kasbiy rivojlanishda art-pedagogikaning o'qituvchilar hissiy farovonligiga ta'siri	223
Suvanova Kamola Raimqul qizi	

Raqamlashtirish muhitida umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish	226
<i>Xamidova Komila Maxmudovna</i>	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	231
<i>Yo'ichiyev Shaxriyor Xusanovich, O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi</i>	
Совершенствование профессиональных компетенций будущих инженеров на основе интегративного подхода	235
<i>Умарова Гулчехра Абитовна</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy qobiliyatining psixologik xususiyatlari	238
<i>Alanazarova Sholpan Artikbaevna, Artiqbaeva Miyassar Jumanazarovna</i>	
Biologiya ta'limida innovatsion metodlarni joriy etishda ta'lim menejmentining roli	241
<i>Allayorova Maloxat Normaxmat qizi</i>	
Integrating Innovative Technologies for the Enhancement of Speech and Communication Skills Among Learners With Intellectual Disabilities in Uzbekistan: Pedagogical Approaches and Developmental Outcomes	244
<i>Donisheva Gulruy Akhrorkulovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirishga metodik jihatdan tayyorlash	247
<i>Doniyarov Mavlonbek Arabovich</i>	
Kimyoviy birikmalarda bog'lar sonini hisoblashning yangi matematik usullari	252
<i>Ergashev Vahob Ergashevich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	257
<i>G'aniyeva Maftuna Abduaziz qizi</i>	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida steam fanlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning metodik asoslari	261
<i>Jamolova Sitara Muzaffar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlar va interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	264
<i>Mamadiyrov Jamol</i>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar mustaqil faoliyatini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar	268
<i>Mamayusupova Nafisa Abdulatifovna</i>	
Para yengil atletikachilarda nayza uloqtirish texnikasini takomillashtirish uslubiyati	271
<i>Qiyomova Shohsanam Yarash qizi</i>	
Difficulties in Enhancing Communicativeness of Pre-Service English Teachers	275
<i>Kurbonova Maftuna Fakhriddinovna, Mirzayeva Gulshan Azamatovna</i>	
Principles of Teaching Basic Foreign Language Skills (EFL)	278
<i>Samandarova Gulsara Ismatilloevna</i>	
O'quvchilarning innovatsion ta'lim muhitida tayanch kompetensiyalarini shakllantirishning dolzarbligi	282
<i>Toshpulatova Farida Radjabovna</i>	
Корпоративная культура педагогов и внутренняя стабильность ДОО	286
<i>Буранова Шохноза Абдуразаковна</i>	
Развивать личностные качества учащихся на уроках географии	290
<i>Шадиева Нигора Шариповна</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida oliy ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar	295
<i>Baytileuova Gulnaz Quralbay qizi</i>	
Yangi avlod pedagoglarini tayyorlash: kompetensiyalar va qadriyatlarining roli	298
<i>Ro'ziboyeva Ma'mura Abdunabiyevna</i>	
Astronomiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvdan foydalanib o'qitishning ta'lim tizimidagi o'rni	301
<i>Barakayeva Sarvinoz To'liqunovna</i>	
Alohida e'tiborga muhtoj bolalar bilan ishlashda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash	305
<i>Usmonov Salohiddin Dushan o'g'li, Namozova Sevinch Asqar qizi</i>	
Ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik qadriyatlarining ustuvorligi	310
<i>Jumayeva Gulnara Tursunpulatovna</i>	
Talabalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarini maqsadli boshqarishga tayyorlashning nazariy asoslari	314
<i>Mahmudova Zulfiya Xomitovna</i>	
Pedagogical Methodology Improve Students' Professional Mobility in Acquisition of Specialty	319
<i>Khidirova Muhabbat Murodillayevna</i>	

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING AQLIY QOBILIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Alanazarova Sholpan Artikbaevna

Qoraqalpoq davlat universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Artiqbaeva Miyassar Jumanazarovna

Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola kichik maktab (1–4-sinflar) yoshidagi o'quvchilarning aqliy qobiliyatining psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qiladi. Tadqiqotda diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur, til va o'qish ko'nikmalari hamda motivatsion-ijtimoiy omillar o'rganildi. Adabiyotlar tahlili natijasida boshlang'ich maktab davrida kognitiv jarayonlarning ongli va maqsadli rivojlanishi, vizual-ko'rgazmali va amaliy metodlarning samaradorligi, shuningdek ota-ona va o'qituvchilarning roli aniqlangan. Maqolada pedagogik tavsiyalar – darslarni vizual materiallar, o'yinlar, bosqichma-bosqich mashqlar va ijtimoiy-emotsional qo'llab-quvvatlash orqali optimallashtirish yo'llari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: kichik maktab yoshi, aqliy qobiliyat, diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur, motivatsiya, pedagogik metodlar.

Abstract: This article analyzes the psychological features of intellectual abilities in early school-age children (grades 1–4). Based on the review of Uzbek, Russian, and international literature, the study examines attention, memory, thinking, imagination, language, learning skills, and motivational-social factors. Findings reveal a shift from visual-imaginal to logical-conceptual thinking, the development of purposeful memory, and the increasing role of school-based learning. The authors propose pedagogical recommendations: use of visual aids, game-based and practical tasks, scaffolded step-by-step learning, and active involvement of teachers and parents to foster self-regulation and academic motivation.

Key words: early school age, intellectual ability, attention, memory, thinking, imagination, motivation, pedagogical methods.

Аннотация: В статье анализируются психологические особенности интеллектуальных способностей младших школьников (1–4 классы). На основе изучения отечественных и зарубежных источников исследованы внимание, память, мышление, воображение, речевые навыки и мотивация учащихся. Установлено, что в этот период происходит переход от наглядно-образного к логическому мышлению, формируется целенаправленное запоминание, повышается роль учебной деятельности. Авторами предлагаются педагогические рекомендации: использование наглядных материалов, игровых и практических заданий, поэтапная работа над задачами, а также активное вовлечение семьи и учителя для формирования саморегуляции и учебной мотивации.

Ключевые слова: младший школьный возраст, интеллектуальные способности, внимание, память, мышление, воображение, мотивация, педагогические методы.

KIRISH

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning yosh davri odatda 7–11 yosh oralig'ida rasmiy belgilanadi ^[2]. Bu davrda bolalarda psixik jarayonlarning o'ziga xos o'zgarishlari kuzatiladi: psixik jarayonlarda tasodifiylik, hatti-harakatlarning ichki ko'rinishi va refleksiya paydo bo'ladi ^[2]. Shu davrda tafakkur va idrokning yangicha tashkil etilishi sodir bo'ladi, ikkinchi tomondan esa boshlang'ich ta'lim boshlanishi bilan bolalarning asosiy faoliyati o'qishga aylanadi ^[1]. Bu bosqichda o'qish faoliyati ustuvor bo'lib, o'qish orqali xotira shakllanadi va atrof-muhit haqidagi bilimlar egallanadi ^[1]. Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy rivojlanishi jarayonidagi psixologik xususiyatlar tahlil qilinadi va mazkur davr pedagogik jihatdan qanday qo'llab-quvvatlanishi haqida tavsiyalar keltiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maqolada foydalanilgan manbalar zamonaviy tadqiqotlar va klassik nazariy ishlardan iborat. Vygotskiy va Pyaje (Piaget) nazariyalari kognitiv rivojlanishning g'oyaviy asosini beradi, rus olimlari (Bakulina va boshq.) boshlang'ich sinf darslarida intellektual jarayonlarni tashkil etish tajribasini taqdim etadi. Mahalliy tadqiqotlar



(Dostmukhamedova, Khaidarova, Imomqulova) pedagogik va psixologik jihatlarni kontekstda yoritadi. Elektron resurslar amaliy misollar va tavsiyalarni to'ldiradi. Shu bilan adabiyotlar bir-birini to'ldirib, nazariy va amaliy asoslarni uyg'unlashtiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola metodologiyasi sifatida ilmiy adabiyotlar tahlili va ta'lim-psixologik tadqiqotlar natijalarini solishtirish usullari ishlatildi. Kichik maktab yoshining aqliy rivojlanishiga oid o'zbek, rus va jahon olimlari tadqiqotlari o'rganildi. Olingan ma'lumotlar integratsiyasi va taqqoslash asosida maqola natijalari umimlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda psixik jarayonlar sezilarli sur'at bilan rivojlanadi. Asosiy kuzatuvlar shundan iborat:

1. **Diqqat.** Bolalar e'tibori dastlab bamaylixotir bo'lib, uzoq vaqt bir joyga jamlasha olmaydi ^[7]. Ularni qiziqitirmaydigan oddiy yoki takroriy topshiriqlar diqqatini tortmaydi. Shu bilan birga, kichik maktab o'quvchisi asta-sekin ongli ravishda maqsadlarni belgilashni va o'z hatti-harakatlarini boshqarishni o'rganadi ^[7].
2. **Xotira.** Bu yoshda xotira jarayoni sezilarli darajada ongli va mantiqiy mazmunda rivojlanadi. O'quvchilar mavhum va so'zli ma'lumotlarni tushunib qabul qilishni va eslab qolishni o'zlashtiradi, so'zli va mantiqiy xotira hajmi ortadi. Shu bilan birga, birinchi sinf o'quvchilari ko'pincha o'qituvchining beradigan matnlarini mexanik tarzda yodlab olishga moyil bo'ladi; bu esa darslikdagi matnlar murakkablashganda qiyinchilik tug'dirishi mumkin.
3. **Tafakkur.** Kichik maktab yoshida tafakkur vizual-imaginal bosqichdan mantiqiy-konseptual bosqichga o'tishni boshlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi dastlab ko'proq kattalar fikriga tayanadi va ko'pincha o'qituvchining aytganlarini takrorlaydi. Keyinchalik bolalar abstrakt-mantiqiy fikrlashni egallay boshlaydi; masalalarni tahlil qilib, tadbirlar zanjiri va sabab-oqibatli bog'liqliklarni aniqlay oladi.
4. **Tasavvur va ijodiy fikrlash.** Kichik maktab yoshida bolalar tasavvuri juda jonli va ijodkorona xususiyatga ega bo'ladi. Ular o'yin va o'ylash orqali turli obrazlarni yaratishga moyildir. Biroq ularning tasavvurlarini boshqarish dastlab qiyin kechadi; vaqt o'tishi bilan tasavvurlar yanada realistik va tartibli bo'lib boradi, yangi obrazlar esa ilgari o'rganilgan tajriba asosida paydo bo'ladi.
5. **Til va o'qish ko'nikmalari.** Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutq ko'nikmalarini tez egallab, yozuv, o'qish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'qish faoliyati ushbu yoshda yetakchi xususiyatga ega bo'lib, o'quvchilar matnlarni tushunish, mustaqil fikrlash va yozishni o'rganishadi. Kompyuter va konstruktiv faoliyat ham yangi bosqichda boshlanadi, bu esa ularning mantiqiy fikrlash va ijodkorlik salohiyatini oshirishga yordam beradi.
6. **Motivatsiya va ijtimoiy omillar.** Kichik maktab yoshida o'quvchilarning ichki motivatsiyasi shakllanishida ijtimoiy omillar muhim rol o'ynaydi. Ular ota-ona va o'qituvchilarga nisbatan mas'uliyat hissi orqali ta'lim jarayoniga ichki motivatsiya hosil qiladi. Qiziquvchanlik va ilmga bo'lgan ehtiyoj esa ma'lumotni emotsional tarzda qabul qilishga yordam beradi va o'qishga bo'lgan ichki motivatsiya poydevorini tashkil etadi.

Yuqoridagi kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, kichik maktab yoshidagi bolalarning diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur va boshqa kognitiv jarayonlari uzluksiz ravishda rivojlanib, asta-sekin ongli va maqsadli xarakter kasb etadi. Shu sababli, bu bosqichdagi ta'limni qiziqarli va mazmunli tarzda tashkillashtirish, pedagoglar tomonidan bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mos usullarni qo'llash zarur hisoblanadi.

Bu bo'lim natijalarga asoslangan holda pedagogik xulosalar va tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Kichik maktab yoshida o'quvchilarning aqliy qobiliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda darslarni tashkil etish muvaffaqiyatli ta'lim-tarbiya kalitidir. Masalan, psixolog Xaydarova ta'kidlaganidek, boshlang'ich sinf o'quvchilari juda emotsional bo'lib, pedagoglarning asosiy vazifasi ularning kelgusidagi o'qishga bo'lgan motivatsiyasini dunyo-qarashlari asosida kuchaytirish hisoblanadi ^[3]. Shu bois o'qituvchilar yangi bilimlarni bolalarning olgan oldingi tajribasi bilan bog'lab, darslarni qiziqarli qilishga harakat qilishi kerak.

Diqqatni jamlash uchun darslarda ko'rgazmali vositalar (rasmlar, video va audio materiallar) hamda o'yin metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki kichik maktab yoshidagi bolalar uchun vizual va amaliy mashg'ulotlar bilim egallash jarayonini faollashtiradi. Masalan, mavzuni tushuntirishda rangli tasvirlar va qo'lda bajariladigan mini-loyihalar orqali bolalarning diqqatini ushlab qolish mumkin ^[5].



Boshlang'ich sinfda ta'limning dastlabki bosqichlarida (1–2-sinf) ko'proq ko'rgazmali-tasvirli faoliyat ustun bo'ladi; bunda diqqat va xotira bilan ishlashga alohida e'tibor qaratiladi. 3–4-sinflarda esa o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga o'tiladi: topshiriqlarni bosqichma-bosqich yechish, savol-javob va munozara orqali mantiqiy bog'liqlik mustahkamlanadi [6].

Shuningdek, o'zini-o'zi boshqarish va mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish maqsadida ota-onalar va o'qituvchilar bolalarda qat'iy kun tartibini joriy etishi, o'yin va jamoaviy faoliyat davomida qoidalarga rioya qilishni o'rgatishi lozim. Bunday tarbiyaviy usullar bolalarda impulsiv xatti-harakatni kamaytirish va mustaqillikni oshirishga yordam beradi [4].

Ushbu pedagogik tavsiyalar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy salohiyatini to'liq rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kichik maktab yoshida bolalarning psixologik ehtiyojlari va qobiliyat xususiyatlarini inobatga olgan holda, dars uslublari va o'quv muhitini moslashtirish zarurati isbotlandi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy qobiliyati – murakkab, bosqichma-bosqich va individual xususiyatlarga boy jarayon. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, 1–4-sinflarda diqqat, xotira, tafakkur va tasavvur sezilarli darajada shakllanadi; o'qish faoliyati esa bu jarayonning markaziga aylanadi. Pedagogik amaliyotda vizual-ko'rgazmali materiallar, o'yin metodlari, bosqichma-bosqich topshiriqlar hamda ota-ona va o'qituvchi hamkorligi eng samarali yondashuv hisoblanadi. Bu usullar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, xotirani kuchaytirish va ijtimoiy-emotsional barqarorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Kelgusida amaliy tadqiqotlar yordamida tavsiyalarning samaradorligini eksperimental tekshirish maqsadga muvofiq sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dostmuhamedova Sh.A., Nishanova Z.T. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. Toshkent: Fan, 2013. – 364 b.
2. Xaydarova M.D. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2022, №8, b.167–170.
3. Imomqulova F.M. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari. Jurnal pedagogiki va psixologii zamonaviy ta'limda, 2022, 2(6).
4. Vygotskiy L.S. Myshlenie i rech'. Moskva: Pedagogika, 1963.
5. Piaget J. The Origins of Intelligence in the Child. New York: International Universities Press, 1952.
6. Bakulina G.A. Intellektual'noe razvitie mladshogo shkol'nika na urokakh russkogo yazyka. Moskva: Vados, 2010.
7. Osobennosti intellektual'nogo razvitiya mladshikh shkol'nikov [Elektron resurs]. URL: https://defektologiya.pro/zhurnal/osobennosti_intellektualnogo_razvitiya_mladshix_shkolnikov/.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.